

PAPER

## INGLIZ TILINI O'QITISHDA SUN'IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

Abdusamadova Ma'rufa Xayrullo qizi <sup>1,\*</sup> and Matkarimova Ashurkhan Ismailovna<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Andijan Davlat Universitetining ikkinchi bosqichi doktoranti

<sup>2</sup>Ilmiy rahbar

\* abdusamadova971@gmail.com

### Abstract

Ushbu maqola bugungi kunda ingliz tilini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning afzalliklari o'rganadi. Sun'iy intellektning afzalliklari orasida tezlik, samaradorlik va xatoliklarni kamaytirish kabi omillar muhim o'rin tutadi. SI ning til o'qitish jarayonidagi ijobiy taraflarini ilmiy tahlil qilish hamda zamonaviy texnologiyalaridan unumli foydalanishga oid tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunda lingvodidaktika va raqamli pedagogika uchun muhim jihatlardan biridir. Ushbu maqolada Ingliz tilini o'qitishda SI vositalaridan foydalanishning samaradorligi hamda quyidagi masalalarning ilmiy-nazariy jihatlari o'rganilib, tahlil qilinadi.

**Key words:** raqamli ta'lim, ingliz tili, innovatsiyalar, metodologiya, sun'iy intellekt, Duolingo Max, Elsa Speak, Replika, Grammarly, ChatGPT.

### KIRISH

Bugungi kunda global kommunikatsiya tili hisoblangan Ingliz tilini o'rganish O'zbekistonning davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PP-5117-sonli farmoni "O'zbekiston Respublikasida chet tillarini sifatli yangi darajaga sifatli olib chiqish choralari to'g'rida" ushbu sohada islohotlar uchun huquqiy va strategik asos bo'lib xizmat qiladi[1].

Ushbu qarorning asosiy vazifalardan biri bu - ta'lim tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalari va masofaviy ta'lim resurslarini joriy etishni tezlashtirish, ta'lim jarayonini raqamlashtirish hamda sifat darajasini xalqaro standartlarga olib chiqishdir. So'nggi yillarda ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'quv jarayonining yanada samaradorligini oshirishga sabab bo'lmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasiga ko'ra, sun'iy intellekt orqali interaktiv platformalar,

Compiled on: March 31, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to Advances in Science and Education for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

intellektual repetitor tizimlari, chat-botlar, nutqni avtomatik tahlil qiluvchi dasturlar va diagnostik baholash modullari til o'rgatishning samaradorligini oshirishga ulkan hissa qo'shib kelayotganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu jarayon talabalarning shaxsiylashtirilgan ta'lim tizimini rivojlantrish, ularning individual imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olish va kamchiliklarni aniqlash, real vaqt rejimida teskari aloqa berish kabi jarayonlarning yuqori pog'onaga ko'tarilishiga o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.

So'nggi yillarda, ingliz, rus va boshqa xorijiy tillarni o'rgatishga mo'ljallangan Duolingo Max, Elsa Speak, Replika, Grammarly, ChatGPT kabi platformalarning keng qo'llanilishi sun'iy intellektning til o'rgatishdagi o'rnini yanada mustahkamladi. Sun'iy intellekt vositalari talabalarga mustaqil til o'rganish, va nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda bir qator imkoniyatlar taqdim etmoqda. Shuningdek, SI yordamida yaratilgan multimodal o'quv materiallari – audio, video, interaktiv mashqlar – tilni natural muhitda o'rganish imkonini oshiradi [2].

## **METODOLOGIYA**

Tadqiqot mobaynida sun'iy intellekt vositalarining xorijiy tillarni o'qitish jarayoniga ta'sirini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy-amaliy metodlardan foydalandik. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy lingvodidaktika va raqamli pedagogika hamda ta'lim texnologiyalarini o'rganishga asoslangan bo'lib, nazariy, amaliy va taqqoslama yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Ushbu jarayon davomida nazariy tahlil metodi qo'llanilib, sun'iy intellektga asoslangan ta'lim tizimlari, lingvistik modellar, intellektual repetitor platformalari, chatbotlar, avtomatik baholash tizimlari o'rganildi. Anderson (2021), Brown & Li (2022), Mahdavi (2020) kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida AI ning til o'rgatishdagi afzalliklari va cheklovlari haqida nazariy asos yaratildi. Shuningdek, Duolingo, Grammarly, ChatGPT va boshqa AI dasturlari haqidagi ilmiy hisobot va maqolalar tahlil qilindi.

Shuningdek tadqiqot davomida taqqoslama tahlil metodi ham ishlatilib, tadqiqot mobaynida an'anaviy til o'qitish metodlari bilan sun'iy intellekt asosidagi metodlar (shaxsiylashtirilgan ta'lim, avtomatik tuzatish, moslashuvchan o'qitish,

gamifikatsiya) o'rtasidagi tafovutlar aniqlandi hamda AI vositalarining samaradorligi, yengilligi, xatolarni aniqlash darajasi va individual ta'limga moslashuvchanlik darajasi mahsus mezonlar yordamida ko'rib chiqildi va natijalar solishtirildi.

Bundan tashqari, kuzatuv metodi, statistik tahlil metodi ham qo'llanilib, kuzatuv ya'ni observatsiya metodida til o'rganayotgan 20 nafar talabaning Sun'iy intellekt vositalaridan 4 hafta davomida foydalanish jarayoni kuzatildi. Ushbu jarayonda talabalarning talaffuz, grammatika va yozma ko'nikmalaridagi o'sishlar doimiy kuzatildi. Shuningdek, SI vositalari hisoblangan ChatGPT, Elsa Speak va Grammarly kabi servislar orqali olingan natijalar talabalarning malaka darajasi bilan bog'liq holda tahlil qilinib talabalarning til o'rganishdagi qiziqishlari darajasida ro'y bergan o'zgarishlar (gamifikatsiya ta'siri, real vaqtli teskari aloqa, mustaqil ishlashga bo'lgan qiziqish) ham tadqiqot davomida kuzatildi. Statistik tahlil metodida esa kuzatuv natijalari sonli ko'rsatkichlarga asoslangan holda umumlashtirildi. Talabalarning xorijiy tillarni o'rganish jarayonidagi talaffuzidagi xato va kamchiliklari, berilgan topshiriqlarini bajarish tezligi va o'zlashtirish salohiyati tahlil qilindi.

## **NATIJALAR**

O'tkazilgan ishlar va statistik tahlillar asosida ko'plab natijalar oldik. Sun'iy intellektning xorijiy tillarni o'qitishdagi o'rnini va samaradorligini ilmiy asosda aniqlashda metodologiyaning o'zaro birikuvi muhim o'rin tutadi. Shu sababli, sun'iy intellekt vositalarining xorijiy til o'qitish jarayonidagi ijobiy taraflarini ilmiy asosda tahlil qilish, SI texnologiyalaridan oqilona foydalanishga oid tavsiyalarni amalda joriy qilish – lingvodidaktika va raqamli pedagogika uchun bugungi kunda muhim vazifalardan biridir.

Mazkur ilmiy tadqiqot mobaynida AI vositalarining xorijiy tillarni o'qitish jarayonidagi samaradorligi hamda SI o'quv platformalari o'qitish jarayonini sezilarli darajada individuallashtirilgani takidlab o'tildi. Talabalarning og'zaki nutqdagi talaffuzidagi xato va kamchiliklarni baholashda Elsa Speak va Speech Analyzer kabi dasturlarning samaradorligi beqiyos hisoblanadi. Shuningdek, Grammarly va ChatGPT kabi tizimlar esa talabalar yozma nutqidagi xatolarni aniqlab, ularni izohlab,

alternativ variantlarni taqdim etadi.

Tadqiqot natijalariga muvofiq shuni ayta olishimiz mumkinki: sun'iy intellekt vositalari til o'rganuvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirib, til o'rganish jarayonini qiziqarli qildi hamda "Gamifikatsiya" elementlari, ball to'plash, bosqichlar bo'yicha o'sish, shaxsiy statistika kabi imkoniyatlar talabani o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini sezilarli oshirdi. AI vositalarining yana bir muhim jihatlari shundan iboratki: u real vaqt rejimida tarjima, sinonim topish, muloqot simulyatsiyasi kabi imkoniyatlar beradi va jarayonlarni osonlashtiradi. Ayniqsa og'zaki nutqni rivojlantirishda o'rni beqiyosdir.

## MUHOKAMA

AI vositalari bugungi rivojlanib borayotgan texnologiyalar asrida ko'plab sohalarida o'zining ulkan o'rniga ega. Biroq ushbu zamonaviy texnologiyalar ham o'zining bir qator kamchiliklariga ega ekanligini tadqiqot mobaynida kuzatildi. Avvalo, AI vositalariga mutlaq tayanish o'quvchilarning mustaqil fikrlash va tafakkurini pasayishiga hamda ayrim grammatik izohlarni o'rganish o'rniga, avtomatik tuzatishlarga suyanib qolishiga ham ayrim hollarda sabab bo'lmoqda. Tadqiqot jarayonidagi kuzatishlarga tayangan holda shu aniqlandiki: AI tomonidan berilgan ba'zi grammatik tavsiyalar to'liq kontekstga mos kelmagan, pragmatik ma'nolar noto'g'ri talqin qilingan holatlar uchragan. Bundan tashqari, matnlarda plagiats oshishi, o'quvchilarning mustaqil yozish ko'nikmalarining sustlashishi ham asosiy muammolardan biridir.

Bundan tashqari SI asosidagi tizimlarning doimo aniq bo'lmasligi ya'ni murakkab idiomatik iboralar, metaforik ifodalar yoki madaniy kontekstga ega gaplarni AI to'liq anglamagan holatlar ham ko'p uchradi. Bu esa tilni real kommunikativ vaziyatlarda ishlatish ko'nikmasini cheklashi mumkin. SI o'qituvchi metodikasini boyitishi, lekin uni to'liq almashtirmasligi, talabalar esa AI-dan oqilona va nazorat ostida foydalanishi zarurligi muhim ilmiy xulosalardan biridir.

## XULOSA

Hozirgi vaqtda zamonaviy texnologiyalar jumladan AI vositalari xorijiy tillarni o'qitishda hamda

o'rganishda muhim vositalardan biri hisoblanib, yuqorida o'tkazilgan ilmiy tahlil va kuzatuvlar orqali AI vositalarining til o'qitishdagi o'rni beqiyos ekanligini tahlil qildik. SI platformalari yordamida til o'rganish jarayoni shahsiylashtirilgan ta'lim tizimini tadbiiq etmoqda, bu esa o'z navbatida shahsiylashtirilgan ta'lim tizimini ya'ni talaffuzni avtomatik tahlil qilish, real vaqt rejimida xatolarni bartaraf etish, yozma ishlardagi grammatik xatolarni aniqlash, qiziqarli mashqlar va multimedia vositalari orqali talabalarning til kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatini berdi. Bundan tashqari, talabalarning motivatsiyasini oshirishi va o'quv faoliyatining uzluksizligini ta'minlashi uchun o'quv jarayoniga gamifikatsiya elementlarini joriy etildi. Biroq, sun'iy intellektga haddan ortiq tayanish o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, kreativ yozish ko'nikmalari va analitik tafakkurini susaytirishi mumkin. Xususan, sun'iy intellekt vositalari til o'qitish jarayonida o'qituvchi uchun kuchli yordamchi vosita bo'lib xizmat qilishi darkor. SI texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun ularni pedagogik maqsadlarga mos holda, o'qituvchining metodik yondashuvi bilan uyg'unlashtirgan holda qo'llash zarur. Shuningdek, talabalarning mustaqil fikrlashi va tahliliy yondashuvi muntazam ravishda rivojlantirib borilishi lozim. Ushbu tadqiqotning natijalari sun'iy intellektning til o'qitishda qo'llanilishi istiqboli keng ekanligini hamda kelajakda AI vositalari yanada rivojlanib, til o'qitish jarayonini yanada samarali, interaktiv qilishi ko'zda tutilmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 1-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni sifatli yangi darajaga ko'tarish bo'yicha faoliyatlarni sifatli olib chiqish choralari to'g'risida" qarori
2. TIL O'QITISHDA SUN'IY INTELLEKTNING IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI | THE LINGUA SPECTRUM  
<https://lingvospektr.uz/index.php/lngsp/article/view/>
3. Qambarova, N. "Ta'limda ahborot texnologiyalari" Toshkent 2019

4. Yo'ldoshev, J, G “Zamonaviy pedagogik texnologiyalar” Toshkent 2010
5. Hartley, E. (2021). Grammar checking tools and their pedagogical implications in ESL writing. *Journal of Applied Linguistics*, 28(5), 244–260.
6. Johnson, R. (2023). Gamification and AI-driven personalized learning in language acquisition. *Educational Technology & Society*, 26(2), 59–74.
7. Mahdavi, M. (2020). Limitations of AI systems in sociolinguistic and pragmatic competence. *Journal of Modern Linguistics*, 9(4), 201–219.
8. Gomez, R. (2022). Overreliance on AI tools in student writing: Risks and challenges. *ELT Pedagogy Review*, 17(2), 35–50.
9. Wang, Y., & Zhao, L. (2021). Neural network applications in automated language assessment. *International Journal of AI in Education*, 31(3), 177–196.
10. Duolingo Research Team. (2023). AI-powered language learning: A report on Duolingo Max. *Duolingo Research Reports*, 3(2), 1–32.